

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova Dual ta'lim tizimi oliy ta'limda: xalqaro tajribalar, samaradorlik va O'zbekiston konteksti	6
Л.К.Орынбаева, У.С.Марчибаева, Е.К.Сейсенбеков Актуальность программ повышения квалификации в формировании компетентностей педагога Казахстана	12
Н.Ю.Костюнина, С.У.Бичурина Неблагополучная семья как фактор девиантной виктимности.....	17
O.N.Fozilova, Sh.S.Rayimova Bola shaxsi rivojlanishida muloqotning o'rni	22
A.S.Toshmatov The role of self-efficacy in teaching foreign languages to improve writing skills.....	25
G.Sh.Latipova Malaka oshirish tizimi tinglovchilarining shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari	31
Sh.D.Iskanderova Fundamentals of pedagogical training: instructional strategies for early learners	38
I.M.Saidov Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy faollikni shakllantirishning tamoyillari hamda uning tarkibiy qismlari.....	43
Н.Ш.Абдуллаева Characteristics and evolution of middle English language.....	48
M.A.G'ofurova Bo'lajak o'qituvchilarning professional rivojlantirish texnologiyalari.....	54
N.F.Yigitaliyeva Pediatriya ishi yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda simulyatsiyalar orqali kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi	59
T.T.Shoymardonov Oliy ta'lim pedagog kadrlarining raqamli kompetentligini rivojlantirish tajribasi: tahliliy yondashuv	63
S.M.Abdullayev Fanlararo hamkorlik asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalalari.....	69
D.O.Djalilova Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germeneytik kompetentsiyasini rivojlantirishning metodologik jihatlarini	73
D.I.Gulamova Evfemizmlarning o'rganilish tarixi.....	77
B.T.Jumayeva Gender yondashuv asosida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	81
A.R.Saydullayeva, K.L.Ro'ziyeva Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy metodologik asoslari.....	81
A.R.Saydullayeva, M.E.Nabiyeva Zararli odatlarga qarshi pedagogik immunitet tushunchasi va uning ahamiyati.	89
G'.R.Israilov Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli	93
A.X.Karimov Oliy tibbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning nazariy jihatlarini	97
M.H.Насритдинова Инновационная артпедагогика как ресурс развития художественно-творческой компетентности у будущих педагогов в цифровую эпоху.....	100



UO'K: 373.2

BOLA SHAXSI RIVOJLANISHIDA MULOQOTNING O'RNI

РОЛЬ ОБЩЕНИЯ В РАЗВИТИИ РЕБЕНКА

THE ROLE OF COMMUNICATION IN CHILD PERSONALITY DEVELOPMENT

Fozilova Odina Nabiyevna¹ ¹Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)Rayimova Shahnoza Sodiqovna² ²Farg'ona davlat universiteti, maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti**Annotatsiya**

Bola ruhiyatiga sekin-asta va aniqlik bilan kirib borishdagi barcha jarayonlarning muloqot vositasida bo'lishi kelgusida boladagi adabiy tilni anglash, to'g'ri so'zlash kabi til bog'liqliklarini o'zlashtirib borishiga yo'l ochadi. Maqolada shu kabi jihatlar ochib berilgan.

Аннотация

Ребенок позволяет ребенку изучать язык языка, например, понимание литературного языка ребенка и правильно говоря. В статье описываются эти и подобные аспекты.

Abstract

The fact that all the processes of entering the child's psyche slowly and precisely through the means of communication paves the way for the child to master language skills such as understanding the literary language and speaking correctly. This and similar aspects are disclosed in the article.

Kalit so'zlar: Bola, ta'lim, tarbiya, qiziqish, shaxs, hissiyot, ruhiyat, nutq.

Ключевые слова: Ребенок, образование, обновление, интерес, личность, эмоции, дух.

Key words: Child, education, education, interest, personality, emotion, psyche.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim yoshi bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi ilk davr hisoblanadi. Mazkur davrdagi ta'lim-tarbiya bilan bog'liq barcha jarayonlardagi izchillik va yuqori sifat bolaning ertangi kamolotini belgilashga xizmat qiladi. Aqliy, axloqiy, jismoniy, psixologik, iqtisodiy tarbiya asoslarini bolaga singdirishda qo'llaniladigan o'yin, suhbat, faoliyat, ko'rgazmali, ijodiy metodlarning ta'sirchanligi va samaradorligini oshirishda bolalarning qiziqishini anglash, aniqlash va shunga ko'ra ma'lum yangicha usullarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim yoshining o'rta guruh (4-5 yosh) davriga kelib, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishuvdagi faollik oshadi, qiziqishlari shakllanib, o'z "men"ini aytishga ichki ehtiyoj va ixtiyor seziladi. Bu davrda bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi tub o'zgarishlar: qat'iy tanlash, ajratish, e'tiroz yoki xohishini bildirish kabilar namoyon bo'ladi. Bunday holatlarda bolani tushunish maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi qatori oilada ota-onalarning ham birlamchi vazifasidir. Bolani tushunishda, avvalo, uni "bola" deb emas, "shaxs" deb bilish, qiziqish va xohishini qo'llab-quvvatlash, biror harakat yoki holatga majburlamaslik, o'z so'zini aytishi va o'z erkini to'laqonli his qildira bilishda muloqot muhim o'rinni egallaydi. Maktabgacha ta'lim yoshida bolalar bilan muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yishdagi asosiy mezon tushunishdir. Tushunish bolaning xatti-harakatlari va ularda ifodalangan va ifodalanayotgan qiziqishni anglashdan iborat jarayondir.

Oilada bola tarbiyasiga qaratilgan ma'lum cheklovlar, qoidalar, tartiblarni aynan muloqot vositasida bolaga yetkazish ota-onadan ma'lum darajada ijtimoiy, psixologik yondashuvni talab etadi.

Dasturxon atrofida to'g'ri o'tirish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kabi jarayonlarning muhimligini tushuntirishda qo'rqitish, so'kish, jerkish, qo'pol harakatlardan foydalanmaslik, aksincha, muloyim va me'yordagi munosabat bilan yetkazish muhimdir. Bola bilan muloqotning to'g'ri yo'lga qo'yilishini ta'minlash aslida ta'lim-tarbiyadagi eng muhim mezondir. Bola maktabga tayyorlov (6-7) yoshiga yetgunga qadar "nanna"ning non, "chu-chu"ning suv, "qu-qu"ning tuxum, "tak-tak"ning poyabzal, "qixa"ning kir, "myav"ning mushuk, "vov-vov"ning kuchuk, "qaq-qa"ning qand, "nyam-nyam"ning ovqat, "di-dit"ning mashina, "jiqa"ning shpris ekanligini bilishi zarur. Kichik yosh davrigacha shu kabi so'zlarning bola bilan muloqot jarayonida bo'lishi tabiiy. Mazkur "topilma" terminlar bolani ovutish, erkalash, o'ynatish, chalg'itish, tinchlantirish, uxlatish kabi vaziyatlarda istalgancha foydalanuvda bo'lishi mumkin, biroq o'rta yosh (4-5) davriga kelib, bolalarga narsa-buyum, jonzot va boshqa predmetlarning asl nomi va vazifasini aytish, tushuntirishda so'zlarning to'g'ri talaffuzi va ma'nosini bera olish g'oyat muhimdir.

METODOLOGIYA

Bola ruhiyatiga sekin-asta va aniqlik bilan kirib borishdagi barcha jarayonlarning muloqot vositasida bo'lishini, shuningdek, kelgusida boladagi adabiy tilni anglash, to'g'ri so'zlash kabi til bog'liqliklarini o'zlashtirib borishiga yo'l ochadi. Bolani shaxs sifatida rivojlantirishga yo'naltirilgan har qanday ta'lim-tarbiyaviy jarayon uning faolligini oshirishga, qiziqishlarini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi kerak. Binobarin, "bola ikki yarim yoshga to'lganda buyumlar bilan bog'liq faoliyat va muomalada ancha yuqori rivojlanish darajasiga erishadi, o'yin va tasviriy faoliyatga o'tish uchun asos yaratiladi. Kattalar uyushtiradigan muloqot va faoliyatda bolalarda o'zini-o'zi anglashning dastlabki belgilari shakllanadi. Bola o'zini atrofdagi odamlardan ajratadigan, o'z imkoniyatlarini anglab yetadigan bo'la boshlaydi. Mustaqillik rivojlanishining ana shu bosqichida bolalar kattalarning vasiyligini qisman cheklashga intiladilar. O'zini-o'zi anglashning dastlabki shakllari xulq-atvor sabablarini shakllantirishning boshlanishi bo'ladi".

Bola shaxsi rivojlanishida muloqotning yetakchi tomoni shundaki, bola bilan bevosita munosabatlarda uning xohish-irodasini anglash va unga e'tiroz bildirmaslikdir. Bolani o'zi xohlamagan ishni qilishga undash, bunda qo'rqitish, uyaltirish, tanbeh berish kabilardan foydalanmaslikka rioya qilish muhim shartlardan biridir. Tarbiyadagi mavjud "jazo" turlari bo'lgan bu usullarning har kuni, har qadamda noo'rin tarzda va shaklda bolaga nisbatan qo'llanilishi bola psixologiyasida "men" tushunchasining to'liq shakllanishida to'siqqa aylanishi mumkin. Bola kattalar tomonidan noo'rin qo'rqitish, majburlash yoki tazyiq asosida biror amalni bajarishi yoki bajarmasligi bora-bora uning kelgusida o'z so'zini aytishga, o'z qiziqish va ehtiyojlarini bildirishda ikkilanish, uyalish, havotir, hadiksirash, qo'rquv kabi ruhiy alomatlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Masalan: 5 yoshli bolaning likopchadagi taomni qoldirishi holati. Bu holatning yuzaga kelishida asosiy 3 sababni sezish qiyin emas:

- A) bola o'z ehtiyojiga mos taomlangani;
- B) taomning bolaga ma'qul kelmagani;
- S) taomga bolaning ehtiyoji yo'qligi.

Bolaning mazkur holatlardan biriga ko'ra, taomni to'lig'icha tanovul qilmasligi ota, ona yoki oilaning boshqa a'zolaridan birining diqqatini tortishi tayin. Shunday vaziyatda bolani taomni oxiriga qadar yeyishga undash, majburlashning aynan kattalar tomonidan amalga oshirilishi bola bilan muloqotning salbiy munosabat shaklini namoyon etadi.

Boladagi ijodiy qobiliyatlarning yuzaga chiqishi bilan bog'liq holatlar ham shunday mazmun-mohiyatga ega. "Ilk yoshdagi bolalarning faolligi va mustaqilligi bevosita katta odamning ishtiroki va ta'siri ostida ro'y bersa, 4-6 yoshli bolalar xilma-xil faoliyatga tobora mustaqil, o'z xohishlariga ko'ra qo'shiladilar, bunda ongning roli oshadi va ba'zan ijodiy xususiyatga ega bo'ladi".

TAHLIL VA NATIJALAR

Bola shaxsi bilan kechadigan muloqot tom ma'noda uni TUSHUNISH bilan barobar kechadi. 3-7 yosh oraliqida bola nutqining aaliy boyib borishi oilada ota-ona va yaqinlari ishtirokiga bog'liqligini unutmagan holda, aynan shu yosh bosqichlarida bolalar bilan ko'proq vaqt o'tkazish, ularning qiziqishi, xohishi, tanlovini inobatga olish, savollariga to'liq va aniq javob berishga harakat qilish zarurati yuzaga

keladi. Unutmaslik kerakki, bola nutqining qanchalik erta yoki kech yuzaga chiqishi u bilan bo'ladigan muloqot sifati va sur'atiga, davomiyligiga chambarchas bog'liq. Muloqotning bosh subekti BOLA ekan, unda kichik yoshidan boshlab qisqa dialogli nutqni shakllantirib borish ehtiyojini inobatga olamiz. Bunda ona yoki otadan bolaning yoshiga ko'ra turli erkalama, ovutmachochlardan foydalanishlari, badiiy adabiyot namunalariga murojaat qilishlari, so'zlarni talaffuziga ko'ra asli va tovushlarning aniq ifodasi bilan yetkazishlari muhim ahamiyatga ega. Misol uchun: nutq davomida "ng" harfi birikmasi bilan tugaydigan ayrim so'zlarning so'ngida ayni shu tovushning aniq aytilmasligi, nutqda "yeyilib" ketishi yohud so'zlarning shevalarga xos ifodalanishi yoki bir so'zning butunlay ma'nosiz qisqartib aytilishi holatlari bola nutqiga shundayligicha o'rnashib qoladi. Ya'ni "bering" – berin, "oling" – olin shaklida. Ko'rinadiki, har bir harf, tovush, talaffuz, so'z va so'z birikmasi bolaning shakllanib, boyib borayotgan nutqi o'zgartirmasligi, buzmasligi, aksincha, unga ijobiy ta'sir o'tkazishi kerakligi hisobga olishimiz nazariy va amaliy jihatdan dolzarblik kasb etadi. Maktabga tayyorlov yoshiga yelganda esa, aytilishi unchalik qiyin bo'lmagan tez aytishlardan foydalanish bola nutqining tekis va ravon bo'lishini ta'minlasa, so'zlarning sononimlarini ko'proq o'rgatish nutqning jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim yosh davrlarida bolalarda shakllanadigan yangicha xulq-atvor sifatlarini aniqlash, tartiblash, zarur o'rinlarda rag'batlantirishda asosiy omil o'yin va faoliyatlar barobarida to'g'ri muloqot asosini ham yaratish va yo'lga qo'yishdir. Nozik qalb, sodda tasavvur, toza ruhiyat egalari bo'lgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ta'lim-tarbiyasidagi to'g'ri yondashuvlarga ularning ertangi kelajagi va hayot yo'llarini topishlariga zamin bo'lib xizmat qiladi. Zotan, tarbiyaning asosiy maqsadi ham shu—ertamiz egalarini komil insonlar etib tarbiyalashdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maktabgacha pedagogika. Darslik./F.Qodirova–Xalqaro pedagogika Akademiyasining akademigi, professor, p.f.d., Sh.Q.Toshpulatova–dotsent, N.M.Kayumova - dotsent, M.N.A'zamova.–Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2019 yil. 127 bet.
2. Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirish. O'quv qo'llanma. M.D.Tursunboyeva, N.K.Narimbayeva, N.H.Maripova, N.A.Hidoyatova. Chirchiq-2022.
3. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Sh.Sh.Nizomova. Buxoro-2022.